



IV USTOZLAR MILLIY FORUMI

MAVZU: MUAMMOLI TOPSHIRIQLAR ASOSIDA
MATEMATIK TAFAKKURNI
RIVOJLANTIRISH

Fasilitator:

U.B.AYDAROVA


Toshkent shahar 35-maktab



Maqsadlar

Ushbu mashg'ulot davomida siz:


- ✓ Muammoni hal qilishga qaratilgan topshiriqlarning
mohiyatini tushunish
- ✓ Muammoni hal qilishga qaratilgan topshiriqlarning
matematik tafakkurni rivojlantirishdagi o'rni
- ✓ Muammoli vaziyatlarni hal qilish bosqichlarini farqlash
va matematika darsligidagi topshiriqlarni qulay
usullarda yechish yo'llari



Matematika-hamma aniq fanlarga asos. Bu fanni yaxshi bilgan bola aqlli, keng tafakkurli bo'lib o'sadi, istalgan sohada muvaffaqiyatli ishlab ketadi... “

Sh.M.Mirziyoyev

Matematikani o'rganish muvaffaqiyatga olib keladi



“3 ta sherik 1 ta ifoda ” mashqi

1. 1-100 gacha istalgan sonni qog'ozga yozing.
2. O'rningizdan turing. Sonlar o'sish tartibida ketma–ket bir qatorga turib oling.
3. Topshiriqlarni diqqat bilan o'qing va o'ng yoki chapda bir qadam tashlang.

Chap

Bir xonali

Toq son

3 ga karrali

20 dan kichik

4. 1daqiqa ichida istalgan 3 ta ishtirokchi yozgan sonlari bilan 1ta ifoda tuzib, kichik jamoa hosil qiling.

5. Boshqa jamoa tuzgan ifodani tekshirish mumkinligini hayotiy misollar orqali isbotlang.

O'ng


Ikki xonali

Juft son

4 ga karrali

40 dan katta

O'ylab ko'ring!



Muammo deganda nimani tushunasiz?




Muammoni hal qilishga qaratilgan qanday topshiriqlarini bilasiz?



Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga muammoni hal qilishga qaratilgan topshiriqlarni berilishiga sabab nimada deb bilasiz?

Muammoni hal etishga qaratilgan topshiriqlar

Muammoli topshiriq



O'quvchini izlanishga, tahlil qilishga, fikrlashga va turli yechim yo'llarini topishga majbur qiladigan topshiriq yoki masaladir. U oddiy hisob-kitob emas, balki o'quvchining tafakkurini, ilgari olgan bilimlarini yangi vaziyatda mustaqil qo'llashga undaydi.

Muammoni hal etishga qaratilgan topshiriqlar maqsadi:



Bilimlarni amaliyotga tatbiq etish:

O‘rganilgan tushunchalarni real hayotda qo‘llash.



Ijodiy qarorlar qabul qilish:

Yangi yechimlarni yaratish va sinab ko‘rish.



Mantiqiy tahlil qilish:

Mantiqiy fikrlash va muammolarni hal qilish.



Matematik tafakkurni shakllantirish:

Matematik fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Muammoli topshiriqlarning turlari

Tadqiqot topshiriqlari

Chuqur tadqiqot talab qiladi

Noan'anaviy masalalar

Ijodiy yechimlarni talab qiladi

Mantiqiy masalalar

Mantiqiy fikrlashni talab qiladi

Hayotiy masalalar



Kontekstual muammolarni hal qilish

PISA uslubidagi
topshiriqlar

PISA 2022 yo'nalishlari bilan bog'lash

Matematik tafakkur nima?

Matematik tafakkur — bu o‘quvchining matematik holatlar va tushunchalar bilan ishlash, ularni tahlil qilish, umumlashtirish, muammoni hal qilish, sabab-oqibat aloqalarini aniqlashga oid fikrlash qobiliyatidir.



Matematik tafakkurning tarkibiy qismlari:

Tahliliy fikrlash

- vaziyatni qismlarga ajratish, tahlil qilish

Mantiqiy fikrlash

- izchil, asosli fikr yuritish

Ijodiy fikrlash

- bir muammoni bir nechta yo'l bilan hal qilish

Rejalashtirish

- muammoni hal qilish ketma-ketligini aniqlash



Umumiy bilim
darajasini oshirish

O‘zini baholashni
rivojlantirish

Bilimlarni
kengaytirish

Ijodiy fikrlashni
rag‘batlantirish


Mantiqiy
fikrlashni oshirish

Muammolarni hal
qilish ko‘nikmalarini
shakllantirish

Nazariy bilimlarni
amaliyotga qo‘llash

Muammoli topshiriq – bilimdan fikrlashga olib boruvchi ko‘prik

- O‘quvchini "bilaman va andozaga qarab bajarayapman" bosqichidan "fikrlayapman, tekshirayapman, kashf etayapman" bosqichiga olib chiqadi.



Muammoli topshiriq orqali bosqichma-bosqich fikrlashni rivojlantirish

3-bosqich: Mulohaza

Yuqori darajadagi fikrlash bosqichi:
Shartni tahlil qilish
Qonuniyatni topish
Strategiya tuzish
Taxminni tekshirish
Xulosa chiqarish

2-bosqich: Qo'llash

Andoza asosida masala va topshiriqlarni bajaradi.



1-bosqich: Bilim

Asosiy bilimlar bazasi.
(ko'paytirish jadvali,
formula, qoida...)


Boshlang'ich ta'limga matematik tafakkurni rivojlantirish uchun qaysi ta'lim nazariyasidan foydalanish kerak?

Vygotskiy nazariyasi

O'quvchilarga o'zlarining yaqin rivojlanish zonalarida yordam berishga e'tibor qaratadi, bu ularning potentsialini maksimal darajada oshiradi.

Piaget nazariyasi

Kognitiv rivojlanish bosqichlarini ta'kidlaydi, o'quvchilarga ularning kognitiv qobiliyatlariga mos keladigan ta'limni ta'minlaydi.



Bruner nazariyasi

O'quvchilarni o'zlarining kashfiyotlari orqali o'rganishga undaydi, bu ularning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini oshiradi.

Muammolarni hal qilish bosqichlari:

Yechimni tekshirish

Tahlil qilish

Muammoli topshiriqlar


Xulosa

Taqdimot

Natijani umumlashtirish

Yechim izlash

Faraz qilish



4-sinf III qism
6-bet 9-topshiriq

Bu topshiriq
mantiqiy fikrlash,
ketma-ketlikda
tahlil qilish va
variantlarni istisno
qilish ko'nikmasini
shakllantiradimi?

Ha bu mantiqiy
fikrlash
ko'nikmalarini
rivojlantiradi!



9. Berilgan ma'lumotlar asosida sonni toping.

Bu turli raqamlardan iborat
to'rt xonali son

Uning birinchi raqami ikkinchi va
uchinchini raqamlarga bo'linadi

Bu sonda
1 raqami yo'q

?

Uning birinchi
raqami juft

Ikkinchi va to'rtinchi raqamlari
yig'indisi 3 ga teng


**Qiyinchilik
darjasи**
Yuqori qiyinchilik
darjasи mantiqiy
xulosalar zanjirini talab
qiladi.



**Mantiqiy xulosalar
zanjiri**



**Bir nechta shartlarni
qanoatlantirish**



**To'g'ridan-to'g'ri hisoblashni
talab qilmaydi**


Yechish usullari:

1-usul: Mantiqiy mulohaza va istisno qilish (deduksiya)

A=8 bo'lganda B va C uchun imkoniyatlarni tekshirish va $B+D=3$ shartini qo'llash.

A raqami B va C ga bo'linishini tekshirish, B va C A dan kichik va har xil bo'lishi kerak.

To'rt xonali sonni ABCD deb belgilash, raqamlar har xil.



Barcha shartlarni bajaradigan to'rt xonali sonni aniqlash.

A=6 bo'lganda B va C uchun imkoniyatlarni tekshirish va $B+D=3$ shartini qo'llash.

A uchun juft raqamlar imkoniyatlarini aniqlash, 1 raqamini istisno qilish.

Yechish usullari:

2-usul: Jadval usuli

A (juft)	Mumkin B, C	B+D=3 sharti	Yechim
2	Yo'q	-	Yo'q
4	Yo'q	-	Yo'q
6	{2, 3}	Agar B=2, D=1 (xato). Agar B=3, D=0 (to'g'ri)	A=6, B=3, C=2, D=0 -> 6320
8	{2, 4}	Agar B=2, D=1 (xato). Agar B=4 (xato)	Yo'q

Yechish usullari:

- **1-usul: Butunni qismlarga ajratish**
 - **1-kun:** Yarmini ($1/2$) o'qidi. Qoldi: $1 - 1/2 = 1/2$.
 - **2-kun:** Qolganining ($1/2$ ning) uchdan birini ($1/3$) o'qidi. Ya'ni, $(1/2) * (1/3) = 1/6$. Bu butun kitobning $1/6$ qismi.
 - **3-kun:** Dastlabki ikki kunda o'qiganining ($1/2 + 1/6$) yarmini o'qidi.
 - $1/2 + 1/6 = 3/6 + 1/6 = 4/6 = 2/3$. Bu ikki kunda o'qigani.
 - Uning yarmi: $(2/3) / 2 = 1/3$. Bu butun kitobning $1/3$ qismi.
 - Uch kunda jami qancha o'qidi?
 $1\text{-kun} + 2\text{-kun} + 3\text{-kun} = 1/2 + 1/6 + 1/3 = 3/6 + 1/6 + 2/6 = 6/6 = 1$.
 - Javob: Ha, ulgurdi.

7. Jasur kitobni 3 kunda o'qib chiqishi kerak. Birinchi kun u kitobning yarmini, ikkinchi kun qolgan betlarning uchdan birini, uchinchi kuni esa dastlabki ikki kunda o'qiganining yarmini o'qidi. Jasur kitobni o'zi mo'ljal qilganidek, uch kunda o'qishga ulgurdimi?

7. Jasur kitobni 3 kunda o'qib chiqishi kerak. Birinchi kun u kitobning yarmini, ikkinchi kun qolgan betlarning uchdan birini, uchinchi kuni esa dastlabki ikki kunda o'qiganining yarmini o'qidi. Jasur kitobni o'zi mo'ljal qilganidek, uch kunda o'qishga ulgurdimi?

Yechish usullari:

2-usul: Aniq son bilan ishlash

O'quvchiga kasrlar bilan ishlash qiyin bo'lsa, aniq son olishni taklif qilish mumkin. Kitob $1/2$, $1/3$, $1/6$ ga bo'lingani uchun, 6 ga bo'linadigan qulay son, masalan, 60 bet bo'lsin.

1-kun: Yarmini, ya'ni $60 / 2 = 30$ bet o'qidi. Qoldi: 30 bet.

2-kun: Qolganining (30 betning) uchdan birini, ya'ni $30 / 3 = 10$ bet o'qidi.

3-kun: Dastlabki ikki kunda o'qiganining ($30 + 10 = 40$ bet) yarmini, ya'ni $40 / 2 = 20$ bet o'qidi.

Jami o'qilgani: $30 + 10 + 20 = 60$ bet. Bu butun kitob.

Javob: Ha, ulgurdi.

7. Jasur kitobni 3 kunda o'qib chiqishi kerak. Birinchi kun u kitobning yarmini, ikkinchi kun qolgan betlarning uchdan birini, uchinchi kuni esa dastlabki ikki kunda o'qiganining yarmini o'qidi. Jasur kitobni o'zi mo'ljal qilganidek, uch kunda o'qishga ulgurdimi?

Yechish usullari:

3-usul: Chizma bilan ishslash



Javob: Ha, ulgurdi.

3 ta ishora – 1ta muammo

1. Berilgan rasmlar yordamida muammoli topshiriq yoki masala tuzing.
2. Tuzgan topshirig'ingiz yoki masalani soat strelkasi yo'nalishi bo'yicha keyingi guruhga uzating.
3. Masala yoki topshiriqning yechimini toping.
4. Taqdimot.



“Matematik qahramon” refleksiya mashqi

Mashg‘ulotdagi ishtirokingizni **qahramonga** qiyoslang va jumlani mavzuga bog‘lab yakunlang.

- Men o‘zimni bugun... kabi his qildim, chunki...
- Kuchliman (hammasini uddaladim)
- Detektiv (muammoni izladim)
- Olim (fikrlarimni tahlil qildim)
- Ikkilamchi qahramon (qiynaldim, lekin harakat qildim)



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA'LIMNI
RIVOJLANTIRISH RESPUBLIKA
ILMIY-METODIK MARKAZI



Respublika
Ta'lif Markazi

Savollar bo'lsa marhamat...

Ishtirokingiz uchun rahmat!